

Muhim sanalar

[Bosh](#)Muhim sanalar

1992 yil noyabr – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zDEUavto” qo'shma korxonasini tashkil etish to'g'risidagi” qarori chiqdi.

1994 yil may – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan “O'zavtosanoat” O'zbek avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi tashkil etildi.

1995 yil may – “Uz-Koram Ko” QK (bamferlar, priborlar paneli ishlab chiqarish) va “Uz-TongXong Ko” QK (avtomobil o'rindiqlari ishlab chiqarish) tashkil etildi.

1996 yil may – “UzDongJuPaintKo” (avtoemallar, germetika, sanoat bo'yoqlari ishlab chiqarish) QK tashkil etildi.

1996 yil may – “SamKochavto” QK ni tashkil etish bo'yicha kelishuv imzolandi.

1996 yil sentabr – “O'zavtotexxizmat” OAJ ichki savdo tarmog'i yaratildi.

1996 yil iyun – “Uz-DongYang Ko” QK (avtomobil salonining ichki qoplamalarini ishlab chiqarish) tashkil topdi.

1996 yil dekabr – “Uz-DongVon Ko” QK (glushitellar, tutun quvirlari, zarbga qarshi balkalar ishlab chiqarish) va (yoqilg'i baklari ishlab chiqaruvchi) “Uz-SeMyung” QKga asos solindi.

1997 yil fevral – “O'zavtosanoat” Assotsiatsiyasining chet el savdo tarmog'ini yaratish boshlandi.

1997 yil may – Minskda xalqaro avtomobil ko'rgazmasidagi ishtirok.

1997 yil oktabr – Sibirda o'tkaziladigan “O'zi ishlab chiqargan zamonaviy avtomobillarni Sibir bozorida ommalashtirish” yarmarkasining oltin medali sovrindori.

1998 yil may – Parijda o'tkazilgan Xalqaro Avtotransport ishlab chiqaruvchilari bosh assambleyada “O'zavtosanoat” OICAning to'laqonli a'zosiga aylandi.

1998 yil oktabr – “Avtooyna” OAJ (avtomobil oynalarini ishlab chiqarish) tashkil topdi.

1998 yil dekabr – (yengil avtomobillar, yuk mashinalari va traktorlar uchun akkumulyatorlar ishlab chiqaruvchi) “UzEksayd” QKga asos solindi.

1999 yil mart – “SamKochavto” QKning rasmiy taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

1999 yil oktabr – (avtomobillar uchun elektrojutlar ishlab chiqaruvchi) “UzKodji” QKga asos solindi.

2004 yil avgust – “O'zavtosanoat” Assotsiatsiyasi Aksiyadorlik kompaniyasiga aylantirildi.

2008 yil avgust – “DaiichiAvtoParts” chet el korxonasining rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi.

2008 yil dekabr – «GM PowertrainUzbekistan» QKning qurilishi boshlandi.

2009 yil sentabr – Namangan shahrida tashqi yoritish tizimlari (avtomobillar uchun fara fonarlar)ni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan “UzChasis” QKning ochildi.

2010-yil mart oyi – Farg'ona viloyatida «Ferrae», “UzdongYang Fergana”, “Fergana Avtoglass” kabi 3 ta yangi zavodi ochildi.

2010-yil avgust oyi – “Navoiy” EIIZda (generatorlar va kompressorlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan) “UzIraeAlternator” QK barpo etildi.

2010-yil avgust – “Navoiy” EIIZda (avtomobillar uchun o'tkazgich simlar ishlab chiqaruvchi) “UzIraeCable” QK ochildi.

2010-yil sentabr – “Navoiy” EIIZdagi “UzMinda” QKda avtomobil komponentlarini ishlab chiqarish boshlandi.

2010 yil noyabr – “UzXanvu” QKda shovqin izolyatsiyasi uchun materiallar ishlab chiqarish boshlandi.

2011 yil may – «MAN Truck&Bus AG» va “O`zavtosanoat” Aksiyadorlik Kompaniyasi O`zbekistonda katta yuk mashinalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi zavodni qurishga kirishdi.

2011 yil sentabr – Yangilangan Chevrolet Captiva avtomobilini yirik hajmlarda ishlab chiqish yo'lga qo'yildi.

2012 yil mart oyi – Chevrolet Malibu avtomobilini yirik hajmlarda ishlab chiqish boshlandi.

2012 yil sentabr – Chevrolet Cobalt avtomobilining seriyali ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi.

2013 yil noyabr – Lacetti II (Gentra) avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.

2014 yil mart – Chevrolet Orlando avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.

2015 yil fevral – Samarqand avtomobil zavodi ishlab chiqarish liniyasidan yigirma minginchi avtomobil-siqilgan tabiiy gazda (STG) harakatlanuvchi ISUZU NPR82 mashinasi chiqarildi.

2015 yil may – "O`zavtosanoat" AK ning yangi ma'muriy binosi foydalanishga topshirildi.

2015 yil iyul – Yaponiyaning «Isuzu Motors» kompaniyasi Samarqand avtomobil zavodining ustav kapitalidan 8 % ulushni sotib olish bo'yicha “O`zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasi bilan kelishuv imzoladi.

2015 yil iyul – “GM Uzbekistan” AJ «Chevrolet Labo» avtomobilini seriyali tarzda ishlab chiqarishni boshladi.

2015 yil iyul – O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 iyuldagi qaroriga ko'ra alyuminiy quymalaridan butlovchi qismlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «UZAUTO-INZI» Ozbekiston-Janubiy Koreya qo'shma korxonasi tashkil etildi.

2016 yil iyun – Yangilangan Chevrolet Nexia avtomobili ishlab chiqarila boshlandi.

2017 yil may – «Uzbekistan Peugeot Citroen Automotive» QKsi “Peugeot Citroen” Gruppasi va “O`zavtosanoat” AK tomonidan barpo qilindi.

2017 yil avgust - O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2017 y. PQ-3028-son "2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan “O`zavtosanoat” AK dan “O`zavtosanoat” AJ ga o'zgartirildi.

2018 yil yanvar – Toshkentdagi Turin politexnika universiteti Janubiy Koreya avtomobilsozlik sohasidagi yetakchi kollejlardan biri – Ajou motor bilan Hamkorlik memorandumini imzoladi.

2018 yil may – Asakadagi “GM Uzbekistan” avtomobil zavodi korxonada ishlab chiqarish jarayonlariga sifat integratsiyasining uchinchi darajasi – BIQ III (Built-InQuality)ni qo'lga kiritdi.

2018 yil sentyabr – “JV MAN Auto-Uzbekistan” MChJ QK o'rindiqli tyagachlarning “Yevro-5” ekologik me'yorga muvofiq keluvchi yangi MAN TGS 19.400 4X2 Efficient Line modelini taqdim etdi.

2018 yil sentyabr – Xorazm viloyatidagi “Xazorasp” IIZda “O`zERA Climate Control” AJda chiqariladigan “Damas” va “Labo”

avtomobillari uchun isitish va ventilyatsiya tizimlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi "GM-UZBEKISTAN" MChJ QK filiali ochildi.

2018 yil oktyabr – "GM Uzbekistan" AJ xaridor avtomobilning avtosalonga yetkazilishini rasmiy sayt orqali monitoring qilib borishi imkoniyatini tatbiq etdi.

2018 yil oktyabr – "KAMAZ" IChAJ va "UzAutoTRAILER" MChJ o'rtasida "KAMAZ ASIA CENTER" qo'shma korxonasini tashkil qilish to'g'risida kelishuv imzolandi.

2018 yil noyabr – O'zbekistonda ilk bor onlayn rejimda "GM Uzbekistan" avtomobillarini sotib olish platformasi - Uzavtosavdo ishga tushirildi.

2018 yil dekabr – "GM Uzbekistan" AJ zavodining Toshkentdagi filiali bazasida Chevrolet Tracker avtomobillarini ishlab chiqarish boshlandi.

2018 yil dekabr – Toshkent viloyati Nurafshon shahrida O'zbekistonda ilk bor multibrend avtosaloni ochilishi o'tkazildi.

2018 yil dekabr – "LUX AUTO MOTORS" avtosalonida "GM Uzbekistan" AJda chiqarilgan uch millioninchi avtomobil sotildi.

2018 yil dekabr – Asaka sh.dagi GM Uzbekistan zavodi bir yilda 220 ming avtomobil ishlab chiqarib, avvalgi yillar rekordini yangiladi, yubiley avtomobil Chevrolet Nexia bo'ldi.

2019 yil fevral – Namangan viloyatida velosipedlar va mototsikllar ishlab chiqaruvchi "Norin Moto Bike" zavodi ochildi.

2019 yil mart – Seulda, O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi bosh vazirlarining 2- yig'ilishida "O'zavtosanoat" AJ, "General Motors" (AQSh) va "GM Korea Supplier Association" (Janubiy Koreya) o'rtasida O'zaro anglashuv memonardumi imzolandi.

2019 yil may – Toshkentdagi Turin politexnika universitetida "Yuventus" futbol akademiyasi ochildi.

2019 yil iyun – "Man Auto Uzbekistan" zavodi konveyeridan yangi avtosamosval modeli – MAN TGS 40.440 6X6 BB T042 U-18H chiqdi.

2019 yil iyul – Turin Politexnika universiteti va uning Toshkentdagi filiali o'rtasida O'zaro anglashuv memorandumini imzolandi, uning doirasida ta'lim, ilm-fan va sanoat sohalarida ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyasi dasturi amalga oshiriladi, shuningdek o'quv dasturlari maqbullashtiriladi. Jumladan, "Avtomobil injiniringi" yo'nalishi bo'yicha bakalavriat va magistratura yangi yo'nalishlarini ochish haqida so'z boradi.

2019 yil iyul – "GM Uzbekistan" kompaniyasi o'z nomini UzAuto Motorsga o'zgartirdi.

2019 yil iyul – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 iyuldagi PQ-4397-sonli "O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

2019 yil avgust – "Ravon Racing Team" jamoasi Moscow Raceway trassasida "Turing-layt" poygasida birinchi o'rinni egallab, Rossiyaning SMP RSKG avtopoygalarida g'alab qozondi.

2019 yil sentyabr – 1,5 Turbo dvigatelli yangilangan Chevrolet Malibu Facelift modelining sotilishi boshlandi.

2019 yil sentyabr – Toshkentda O'zbekistonda birinchi UzAuto Market startap platformasining ochilishi bo'ldi. Innovatsion maydoncha ishlab chiqaruvchi zavod va xaridorlar o'rtasida bevosita aloqani ta'minlashga qaratilgan, u tyuning atele xizmatlarini, avtotovarlar taqdim etadi va yosh kashfiyotchilar uchun startap-makon bo'ladi.

2019 yil sentyabr – "O'zAuto-Austem" kompaniyasi yangi oyna yuvish suyuqliklarini ishlab chiqarishni o'zlashtirdi.

2019 oktyabr – O'zbekistonda minilgan avtomobilni yangisiga pul to'lash bilan almashtirish bo'yicha jahon tajribasi – Trade-In joriy etildi.

2019 yil sentyabr – Rossiyada Ravon avtomobillarini sotish boshlandi.

2019 yil sentyabr – “O‘zavtosanoat” AJ keng ko‘lamli “Mahalliyashtirish forumi-2019”ni o‘tkazdi. Mahalliy korxonalar bilan bir qatorda, Forumda Braziliya, Hindiston, Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlardan 50 dan ziyod kompaniya qatnashdi, ular sirasida Faurecia (Fransiya), Autoglass Corp – (Janubiy Koreya), Yanfeng Adient – (Xitoy), Spark Minda (Hindiston), Joyson Safety Systems (AQSh) va boshqa, avtokomponentlar ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar bo‘ldi.

2019 yil oktyabr – Toshkentda odatiy MTTlarni qurish imkonsiz bo‘lgan chekka qishloq joylari, tog‘li tumanlar va borish qiyin bo‘lgan aholi punktlariga mo‘ljallangan mobil va modulli maktabgacha ta‘lim tashkilotlari taqdimoti o‘tkazildi. Mobil MTT Maktabgacha ta‘lim vazirligi Maktabgacha ta‘lim sohasi siyosatini shakllantirish va yuritish bosh boshqarmasi va “O‘zavtosanoat” AJ tomonidan amalga oshirildi.

2019 yil oktyabr - UzAuto Motors Service & Trade-In Center maydonchasidan Ravon R2, R3 i R4 avtomobillarida Toshkent-Minsk yo‘nalishi bo‘ylab tantanali avtopoyga start oldi. Poyga yo‘nalishi 4000 km bo‘lib, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya va Belarus hududidan o‘tadi. Avtopoygadan ko‘zlangan maqsad – O‘zbekistonning belaruslik iste‘molchilar bilan do‘stona aloqasini yo‘lga qo‘yish va O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillar ishonchligini ko‘rsatishdir.

2019 yil oktyabr – Toshkentda yangi UzAuto Motors Service & Trade-In Center servis va savdo markazi ochilishi bo‘ldi. Markazning asosiy xususiyati –minilgan avtomobilni yangisiga qo‘shimcha to‘lov bilan Trade-in tizimi bo‘yicha almashtirish imkoniyatidir.

2019 yil noyabr – Minskda Ravon brendining taqdimoti bo‘ldi, u Belarus Respublikasida avtomobillar sotuvini boshlab berdi. Modellar qatori uchta model bilan taqdim etildi: Ravon R2, Ravon Nexia R3 i Ravon R4.

2019 yil noyabr – Samarqanddagi “UzAuto Trailer” zavodida yangi KAMAZ avtomobillari shassisini yig‘ish liniyasining rasmiy ishga tushirilishi bo‘lib o‘tdi.

2019 yil noyabr – “UzAuto Trailer” MChJ zavodda chiqarilayotgan samosval kuzovlari sifatining e‘tirofi o‘laroq, Hardox in My Body sertifikatini bilan taqdirlandi.

2019 yil noyabr – “UzAuto Trailer” MChJ va “KAMAZ” IChAJ o‘rtasida “KAMAZ ASIA LEASING” qo‘shma korxonasini tashkil etish bo‘yicha ta‘sis hujjatlari imzolandi.

2019 yil noyabr – Toshkentda O‘zbekistonda birinchi marta ishlab chiqarilgan ISUZU D-Max pikapi taqdimoti o‘tkazildi.

2019 yil dekabr – “O‘zavtosanoat” AJning Yaponiyaning Isuzu Motors va Itochu Corporation kompaniyalari bilan hamkorligi evaziga avtomobilsozlik sohasiga yirik investitsiyalarni jalb qilish to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

2019 yil dekabr – “UzAuto Motors”ning Xorazmdagi filiali ishlab chiqarish liniyasidan 200 minginchi avtomobil chiqdi. Yubiley model Damas avtomobili bo‘ldi.

2019 yil dekabr – “UzAuto Motors” kompaniyasi to‘rtta yangi yo‘ltanlamasni taqdim etdi: Chevrolet Tahoe, Traverse, Trailblazer i Equinox.

2020 yil yanvar – “O‘zavtosanoat” AJ, “Sinotruk International Investment Limited” va “MAN Truck & Bus SE” o‘rtasida mavjud “UZ TRUCK AND BUS MOTORS” MChJ QK bazasida “JV MAN Auto-Uzbekistan” MChJ QK qo‘shma korxonasini tuzish bo‘yicha kelishuv imzolandi.

2020 yil yanvar – UzAuto Market innovatsion maydonchasi hududida xususiy ishlab chiqaruvchilar, ilm-fan vakillari, kimyo, qishloq xo‘jaligi, yengil va boshqa sanoat vakillari uchun Cooperation Lab tarmoqlararo kooperatsion forumi tashkil etildi.

2020 yil yanvar – O‘zbekistondagi birinchi ISUZU D-Max pikaplari sotuvi boshlandi.

2020 yil fevral - Ravon Nexia R3 Qozog‘istonda eng ko‘p sotiladigan model bo‘ldi.

2020 yil fevral – “Uzauto Motors” eksport bozorlariga avtomobillarni Chevrolet brendi ostida sotishni boshladi.

2020 yil mart – “O‘zavtosanoat” AJ va “Folkswagen Grup Rus” O‘zbekistonda yengil tijorat avtomobillarini chiqarish va sotish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida kelishuv imzoladi.

2020 yil mart – “O‘z Dong Yang Ko” qo‘shma korxonasida tibbiy niqoblar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2020 yil mart – Qustanay (Qozog‘iston) sh.da “SariarkaAvtoProm” MChSh ishlab chiqarish quvvatlarida “Chevrolet” brendi ostida “UzAuto Motors” avtomobillarining yangi modellarini ishlab chiqarish boshlandi.

2020 yil aprel – “O‘z Dong Yang Ko” yuz uchun himoya shchitlarini ishlab chiqara boshladi, “O‘zauto Austem” korxonasiida antiseptiklar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2020 yil may – Belarus Respublikasida “Chevrolet” brendi ostida “Uzauto Motors” avtomobillari sotuvi boshlandi.

2020 yil may – “O‘zavtosanoat” Andijon viloyatida zamonaviy “Asaka City” turar joy mavzeini qurishni boshladi.

2020 yil iyun – “General Motors” bilan tuzilgan kelishuv doirasida “UzAuto Motors” Rossiyada ommaviy segmentdagi “Chevrolet” avtomobillarini sotish boshlanganligini e‘lon qildi.

2020 yil iyul – Ravon R3 Qozog‘istonda yilning ikkinchi choragidagi eng ko‘p sotilgan modelga aylandi.

2020 yil iyul – O‘zbekistondagi “Folkswagen” rasmiy avtosalonlarida “Volkswagen Caddy” avtomobillarining sotuvi boshlandi.

2020 yil avgust – Toshkent shahri Bektemir tumanida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida “Cooperation LAB” tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish markazi ochildi.